

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduraxmonov	
Adabiy asardagi nurning xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda).....	460
A.B.Kosimova	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabllar	469
	TILSHUNOSLIK
M.Y.Mamajonov	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni	473
R.M.Shukurov, G.S.Jo'raboyeva	
Farg'ona viloyati toponimlarining sotsiolingvistik xususiyatlari	477
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida	483
F.X.Qosimova	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili.....	488
A.A.Ergashev	
Etnotoponimlar tadqiqi	496
H.Sh.Radjabova	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir.....	502
S.A.Jabborova	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages.....	507
Sh.R.Amonturdiyeva	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari	511
D.I.Mirzayeva	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi.....	517
X.F.Xaydarova	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	520
M.A.Hojiyeva	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati.....	524
I.A.Egamberdiyeva	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi	527
D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'lchov so'zlarning qo'llanilishi.....	531
Z.Sh.Ashurova	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini	535
I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar	539
Z.M.Sobirova	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida.....	545
V.A.Vositov	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida	550
M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi	557
D.I.Khodjaeva	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari.....	562
O.M.Yusupova	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili	567
M.V.Nasridinov	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	572
M.O.Batirkhanova	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages	577
M.U.Mamadjanova	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics	582
M.V.Nasridinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili	586
M.Y.Madiyeva	



UO'K:81.374.82

TERMINOLOGIK LUG'ATLAR TADQIQIGA DOIR
ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИХ СЛОВАРОВ
ON THE RESEARCH OF TERMINOLOGICAL DICTIONARIES

Radjabova Hafiza Shukrulloevna 

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Xorijiy tillar markazi boshlig'i

Annotatsiya

Maqolada termin va terminologiyaga oid qarashlar, leksikografiyaning obyekti bo'lgan lug'atlar va ularni tuzish prinsiplari, metodikasi, lug'at tiplari, lug'atchilik tarixiga oid izlanishlar, shuningdek, lug'atlarning fan va texnikaning ma'lum bir yo'nalishiga, tarmog'iga bag'ishlangan turi hisoblangan terminologik lug'atlar hamda ularning izohli yoki izohsiz, tarjima kabi turlari haqida so'z yuritiladi. Hozirgi tezkor zamonda sohalarning rivojlanishi bilan ularga oid terminlarning paydo bo'lishi, shu bilan bir qatorda, mazkur sohalarga oid lug'atlarni shakllantirish zarurati mavzuning dolzarbligini anglatadi. Bundan tashqari, fanning turli sohalariga oid terminologik lug'atlar, ularning shakllantirilishida mualliflarning yondashuvlari tahlil qilingan. Mazkur maqolani shakllantirishda statistik tahlil metodi, struktural tahlil metodi, qiyosiy-tarixiy metod va qiyosiy-chog'ishtirma tavsifiy metodlarga tayaniladi. Shuningdek, izlanishlar natijasida to'plangan ma'lumotlar hamda ularga oid xulosalar umumlashtiriladi.

Аннотация

В статье рассматриваются взгляды на термины и терминологию, словари, являющиеся объектом лексикографии, и исследования по принципам, методике их составления, типам словарей, истории лексикографии, а также терминологические словари, являющиеся типами словарей, посвященными определенному направлению, отрасли науки и техники, а также их разновидности, как аннотированные, так и аннотированные, переводные. С развитием отраслей в наше быстрое время появление терминов, относящихся к ним, а также необходимость формирования словарей, относящихся к этим отраслям, означают актуальность темы. Кроме того, были проанализированы терминологические словари, относящиеся к различным отраслям науки, подходы авторов к их формированию. При формировании данной статьи опираются на метод статистического анализа, метод структурного анализа, сравнительно-исторический метод и сравнительно-сравнительный описательный метод. Также обобщаются данные, собранные в результате исследований, а также выводы, относящиеся к ним.

Abstract

The article discusses views on terms and terminology, dictionaries that are the object of lexicography, and research on the principles, methods of their compilation, types of dictionaries, the history of lexicography, as well as terminological dictionaries, which are types of dictionaries devoted to a particular field, branch of science and technology, as well as their varieties, both annotated and unannotated, transferable. With the development of industries in our fast time, the appearance of terms related to them, as well as the need to form dictionaries related to these industries, mean the relevance of the topic. In addition, terminological dictionaries related to various branches of science and the authors' approaches to their formation were analyzed. In forming this article, they rely on the method of statistical analysis, the method of structural analysis, the comparative historical method and the comparative descriptive method. The data collected as a result of the research, as well as the conclusions related to them, are also summarized.

Kalit so'zlar: terminologiya, lug'at, metodlar, ikki tili, ko'p tili, metodologiya, ko'p komponentli terminlar, soha terminlari, ekvivalent.

Ключевые слова: терминология, лексика, методы, двуязычие, многоязычие, методология, многокомпонентные термины, отраслевые термины, эквиваленты.

Key words: terminology, vocabulary, methods, bilingualism, multilingualism, methodology, multicomponent terms, branch terms, equivalents.

KIRISH

Leksikologiyaning lug'at tuzish bilan shug'ullanadigan bo'limi Leksikografiya deb nomlanib, grekcha *lexikos* – so'z, *grapho* - chizmoq, yozmoq so'zlaridan tashkil topib, tilshunoslikning lug'atlarni shakllantirish amaliyoti va nazariyasi bilan shug'ullanadi. Anatol Fransning yozishicha, "lug'at - alfavit tartibida joylashtirilgan voqelikdir". Bundan borliqdagi jamiki

TILSHUNOSLIK

narsa, hodisa va voqealar har bir tilning lug'at boyligida aks etadi, degan ma'no kelib chiqadi [1; 7-22 b]. Leksikografiyaning oldiga bir qator vazifalar qo'yilgan bo'lib, ularga: *lug'at tuzish prinsiplari va metodikasini ishlab chiqish; lug'at tiplari va turlarini aniqlash; lug'atshunoslarning ishini tashkil qilish; lug'at tuzish uchun asos bo'ladigan kartoteka fondini yaratish; lug'atchilik tarixini o'rganish va lug'at tuzish bilan shug'ullanishdir* [2; 231 b]. Lug'atlarning izohli, tarjima, imlo, maxsus etimologik, sinonimlar, antonimlar, xorijiy so'zlar, frazeologik, morfemik va so'z yasovchi, grammatik, orfografik, neologizmlar, epitetlar, antroponimlar, toponimlar, qisqartmalar va boshqa turlari mavjud [3; 19-36 b]. Bundan tashqari, talaffuz (orfoepik) lug'at, chastotali lug'at, ters (chappa) lug'at, dialektologik lug'atlar lingvistik lug'atlarning oldiga qo'yilgan maqsadlariga ko'ra turlarini belgilaydi. Shuningdek, lug'atlarning yana bir turi mavjudki, fan va texnikaning ma'lum bir yo'nalishiga, tarmog'iga bag'ishlangan bo'lib, ham izohli, ham tarjima lug'ati hisoblanga terminologik lug'atlardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Terminlarning shakllanishi, ularning o'ziga xos xususiyati haqida dastlabki tadqiqot ishlarini olib borgan olimlarga G.Vinokur, A.Reformatskiy, D.Lotte, A.G.Xodakova, V.A.Tatarinov, M.N.Volodina, S.E.Nikitina, O.Vinokur, V.V.Vinogradov, O.S.Axmanova, V.M.Boguslavskiy, P.A.Budagov, N.K.Dimitriev, D.S.Lotte, L.L.Kutina, B.N.Golovin, R.G.Piatrovskiy, A.V.Superanskayalarni kiritish mumkin. Ularning tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'p tillilik bilan bog'liq muammolar tushunchalar va terminlarni standartlashtirishga qaratilgan metodologiya ilgari surilgan. Terminologik lug'atlar haqida so'z ketganda, terminning o'zi nima ekanligi, uning qanday holatda oddiy so'zdan farq qilinishi va semantik munosabatlar kirishgandagi vazifalari haqida ta'kidlash muhim.

P.A.Florenskiy o'zining "Termin" nomli asarida shunday deb yozgan: "Ilmiy nutq kundalik tildan to'qilgan vosita bo'lib, uning yordamida biz bilish predmetini egallaymiz. Fanning mohiyati qurilishda yoki aniqrog'i, terminologiyani tartibga solishda. Muvaffaqiyatli terminga aylantirish uchun noaniq so'z qo'yilgan muammoni hal qilishni anglatadi. Har bir fan terminlar tizimidir, shuning uchun terminlar hayoti fan tarixidir. Fan tarixini o'rganish terminologiya tarixini o'rganish demakdir. Terminlar fikrning qandaydir bir chegaralaridir" [4; C. 359].

B.Golovinga ko'ra, "Terminlar – alohidalangan so'z bo'lib, ma'lum bir kasbiy tushunchani ifodalaydi va soha muloqoti doirasida qo'llaniladi" [5; C.5]. Shuningdek, L.V.Ivina ham termin tushunchasini izohlab, unga ilm-fan va maxsus bilish nazariyasining asosiy leksik birligi sifatida qaraydi hamda biror bir obyekt yoki jarayonlarning nomlanishi bilan birga olamni anglash quroli sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi [6; c.13].

N.Kuzkinga ko'ra, termin bilan so'zning o'rtasida farq yo'q, ular shaklan ham, mazmunan ham jiddiy tafovutga ega emas [7; c.156-157]. Shuningdek, u termini bir vaqtning o'zida biror tushunchani nomlashi, ifodalashi va aks ettirishi orqali nominativlik, ekspressivlik va definitiv funksiyani bajarishini ta'kidlaydi.

A.V.Kalinin esa termin bilan kasb-hunar so'zlarining bir-biridan farqli ekanligini quyidagicha asoslashga intiladi: "termin – bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, kasb-hunar so'zlari esa – biror kasb, mutaxassislik o'rtasida ko'pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat'iy, ilmiy tavsifiga ega bo'lmagan yarim rasmiy so'zdir" [8; c. 141].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Lug'atlarning asosiy vazifalari keltirilayotgan so'zlarning ma'nolarini tasniflash, qo'llaniladigan sohalarga ko'ra ma'nolarining izohlanishi, tuzilish xususiyatlari, shuningdek, ularni shakllantirilishida bir qator omillarga e'tibor qaratiladi, jumladan: a) lug'atlarda tanlangan tillar miqdoriga ko'ra, ya'ni bir tilli, ikki tilli yoki ko'p tilli bo'lishi. Bunda ikki yoki ko'p tilli lug'atlarning tarjimaga qaratilganligi sabab, ularni tarjima lug'atlar ham deb atash mumkin.

b) so'z yoki atama ma'nolarining yoritilishiga ko'ra, ya'ni ularning izohli yoki izohsiz shaklda tuzilishi, ularning izohli lug'at nomini olishi bilan sharxlanadi.

c) obyekt va predmetiga ko'ra farqlanishi, ya'ni terminologik, frazeologik, orfografik orfoepik va boshq.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari turkiy xalqlarning ilk lug'ati hisoblanib, garchi u terminologik lug'at bo'lmasada, u turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli,

etnografik, tarixiy-etnologik lug'atlarning barcha unsurlarini qamrab oluvchi dastlabki universal lug'at hisoblanadi [9].

M.A.Sobirovning ilk bor 1952-yilda *“Ruscha-o‘zbekcha matematik terminlar lug‘ati”*, 1970-yilda *“Ruscha-o‘zbekcha matematik lug‘at”* kitobi, 1973-yilda *“Matematikaning ruscha-o‘zbekcha lug‘ati”* nashr etilgan. Dastlabki 3 ming so‘zdan iborat qisqa lug‘at shakllantirilgan bo‘lib, analitik geometriya, oliy algebra, geometric yasashlar metodlari va differensial geometriyaga oid terminlar jamlangan. Keyinchalik matematik logika, matematik biologiya, matematik lingvistika va boshqa ko‘plab sohalarning vujudga kelishi orqali yangidan-yangi terminlar paydo bo‘ldi. Jumladan, *оптимальный план, сетевое планирование, автоматный язык* kabi terminlar, shuningdek, sifot+ot modeldagi terminlar (*объёмное изображение – hajmiy tasvir*) ot+ot (*дробное число – kasr son*) va ot+ot+egalik affiksi (*дуговой градус – yoq gradusi*) kabi modellar orqali yasalgan terminlarning tarjimalariga katta e‘tibor qaratildi.

O.S.Axmanovning *“Словарь лингвистических терминов”* lug‘atida tilshunoslikning barcha yo‘nalishlar, jumladan, fonetika, fonomorfologiya, morfologiya, sintaksis, leksikologiya, lingvistik stilistikaga oid 7000 ga yaqin atamalar kiritilgan va ularga izoh berilgan. Terminlarning ingliz tilidagi tarjimalari fransuz, nemis va ispan tillaridagi taqqoslashlari bilan birga keltirilgan. Shuningdek, terminologiyaning nazariyasi, lug‘at tuzish tamoyillari haqida so‘z yuritilgan [10].

H.Sh.Radjabovning *“O‘zbekcha-inglizcha-ruscha xavfsiz turizmga oid atamalar lug‘ati”*da (2024) IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta‘minlash sohasi xodimlarining kundalik xizmat faoliyati davomida qo‘llaniladigan iboralarni, shuningdek yurisprudensiyaga oid sohaviy so‘z va iboralarni hamda turizm sohasi mavzularidagi adabiyotlarni o‘qish va tushunish hamda tarjima qilish uchun zarur bo‘lgan 3000 ga yaqin terminlarni o‘z ichiga olgan [11]. Shuningdek, muallif tomonidan *“criminal”* so‘ziga ayrim lug‘atlarda uchraydigan sinonim sifatida qaralayotgan *“huquqbuzar”* deb emas, *“jinoatchi”* so‘zi orqali ifodalanishi, yoki aksincha *“offender”* so‘ziga *“jinoatchi”* deb emas, balki *“huquqbuzar”* tarzida berilishi huquqiy hujjatlar asosida asoslantirilgan. Masalan, *“jinoyat”* — Jinoyat Kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik). Har qanday ijtimoiy xavfli qilmish ham jinoyat hisoblanmaydi, qilmishning jinoyat deb hisoblanishi uchun unda jinoyat qonunida o‘rnatilgan belgilar va jinoyat tarkibi mavjud bo‘lishi kerak [12]. *“Huquqbuzarlik”* — sodir etilganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) [13]. Xuddi shunday, *“crime”* va *“offence”* so‘zlarida ham yuqoridagi tafovutlarni uchratish mumkin.

A.Hojiyevning *“Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”* (2002) tilshunoslikka oid terminlarning barchasini qamrab olmasada, o‘zbek tilida bor va shu tilga oid til hodisalarini qamrab oluvchi (1700 ga yaqin) terminlar kiritilgan, ya‘ni boshqa tillarga oid bo‘lgan hodisalarni ifodalovchi terminlar nazarda tutilmagan. Jumladan, *ablaut, artiki va aorist* kabi so‘zlar lug‘atda aks ettirilmagan[14].

N.T.Hotamovning *“Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha – o‘zbekcha terminologik lug‘at”* (1969) nomli lug‘atida adabiyot darsliklari va qo‘llanmalarida, gazeta jurnallar sahifalarida va adabiyotshunoslikka oid kitoblarda keng qo‘llaniladigan, asosan sovet-internatsional xarakterda bo‘lgan 2 mingdan ortiq soha terminlari va terminlashgan birikmalari kiritilgan bo‘lib, unda ruscha – internatsional sinonim terminlarning o‘zbek tilida qo‘llanib kelinayotgan dublet sinonimlari ham berilgan. Masalan, metafora – *metafora, istiora*.

Ya.Shermuhamedov va A.Umarovlarning *“Русско – узбекский словарь военных терминов”* (1981) nomli lug‘atida jami 8000ga yaqin harbiy strategiya va taktikaga oid, qo‘shin tuzilishi, qurol-yaroq nomlari, sohaga oid qisqartma terminlar, komanda va komandaga oid so‘zlar tarjimasini, shuningdek noto‘g‘ri ishlatib kelingan terminlar o‘rniga adekvat ma‘noli terminlar tavsiya etilgan. Masalan, *командная высота* terminining o‘zbekcha tarjimasida *“komanda tepaligi”*, *“komanda balandligi”* kabi xato so‘zlar ishlatilib kelinganligi izohlanadi va mualliflar jamoasi tomonidan esa *“ustun tepalik”* termini ishlatilishi tavsiya qilinadi.

A.A.Abdurazzoqov va E.N.Nazirovlarning *“Yadro fizikadan ruscha - o‘zbekcha terminlar lug‘ati”* (1988) sohaga oid 10.000 ga yaqin termin va terminoelementlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Shuningdek, radioaktiv yemirilish jarayonlari, elementar yadrolar fizikasi, yadro energetikasi, atom yadrosi strukturasi, yadro fizikasi va yadro texnikasining qo‘llanish sohaslariga oid terminlarning o‘zbekcha ekvivalentlari shakllantirishda mualliflarning ijodiy yondashuvi bilan birga xalqaro

TILSHUNOSLIK

terminologik fondning imkoniyatlaridan ham unumli foydalanilgan. Shuningdek, “aniqlovchi – aniqlanmish” turidagi tarkibiy terminlar birikmada semantik jihatdan asosiy boʻlgan soʻz boʻyicha shakllantirilgan. Masalan, *атомное ядро, бето-активное ядро, возбуждённое ядро, диффузионное ядро, изобарное ядро, изомерное ядро, резонансное ядро* va boshqalar.

A.Qosimov va H.H.Xolmatovlarning “*Ruscha - oʻzbekcha – lotincha farmasevtik terminlar lugʻati*” (1990) sohaga doir dastlabki lugʻat hisoblanib, unda meditsina va farmasevtika yoʻnalishida keng qoʻllaniladigan 400 dan ortiq termin va terminologik birliklardan tashkil topgan. Shuningdek, unda “*ingalyator*”, “*poroshok*”, “*bakterisit*”, “*gormon*”, “*balsam*”, “*briket*”, “*emulsiya*” va “*konsentrat*” kabi oʻzlashmalar borasida ham fikr yuritilgan.

R.B.Bekjonov, Sh.M.Kamolxoʻjayev va X.A. Rizayevlarning “*Fizikadan ruscha – oʻzbekcha atamalar lugʻati*”da (1991) eng muhim bosqich hisoblanga tarjima jarayoni, yaʼni oʻzbek tiliga tarjima qilinadigan soʻzning mazmuni va vazifasi boʻyicha mos keluvchi yangi soʻzni hosil qilish yoki soʻzni boricha oʻzlashtirish masalasiga yechim sifatida soʻzlar tanlangan. Masalan, *абсорбент – абсорбент (yutuvchi sirtga ega jism)*.

N.Ibodovning “*Anatomiyadan qisqacha lotincha-ruscha-oʻzbekcha lugʻat*” (1995) odam anatomiyasiga oid atamalar, shuningdek, uni tuzishda Parijda qabul qilingan va oʻzgartirilgan yangi anatomiya terminlari qamrab olingan. Masalan, *vasomotor – сосудодвигательный нерв – томirni harakatga keltiruvchi nerv*.

T. Ergashevning “*Iqtisodiy atamalarning oʻzbekcha – inglizcha — ruscha lugʻati*”da (2001) milliy iqtisodiyotning bozor munosabatlariga asoslangan milliy modelini yaratishga doir atamalarini qamrab olib, shuningdek, oʻzbek tilida gapiruvchilarga iqtisodiy atamalarning ingliz tilidagi ifodasini topishga va uni amalda istifoda qilishga xizmat qiluvchi 2 mingdan ortiq soʻzlarni qamran olgan. Masalan, *tashqi savdo siyosati – external trade policy – политика внешней торговли*.

A.Aʼzamov, E.Nazirovlarning “*Atmosfera fizikasidan ruscha – oʻzbekcha atamalar lugʻati*”da (2004) fan taraqqiyoti sabab yangi shakllangan 500 ga yaqin yangi terminlar, eskirib qolgan 200 dan ortiq atamalarning chiqarib yuborilishi ushbu lugʻatni shakllantirishga turtki boʻlgan hamda unda tarkibli atamalarning *ot+sifat* koʻrinishida berilishi atamalarning qiyoslanishini osonlashtirish va lugʻat hajmining ixchamlashishiga xizmat qilgan. Masalan, *высота торопаузы – торопауза баландлиги*.

P.N.Gʻulomovning “*Geografiyadan qisqacha ruscha-oʻzbekcha terminlar va tushunchalar lugʻati*”da (2013) baʼzi terminlar faqat bir variantda berilmay, bir necha varianti keltirilgan, ayrim termin va tushunchalarga qisqa izohlar ham berilgan. Jumladan, geografik qonuniyatlar, geografik oʻrin, geografik mavqe, geografik xarita, geografik makonga doir atamalar keng yoritilgan. Masalan, *автоматические межпланетные станции – sayyoralararo avtomat stansiyalar*.

M.Shokirova va Sh.Nurullayevlarning “*Inglizcha – oʻzbekcha – ruscha kimyo terminlari lugʻati*”da (2013) soha terminlarining 5270 ta atamasi kiritilgan boʻlib, unda Mendeleev davriy jadvali elementlarining ingliz tilidagi koʻrinishi hamda sohaga doir qisqartmalar va ularning izohlariga aniqlik kiritilgan. Masalan, *acedic acid – sirka kislotasi – уксусная кислота*.

Anvar Kurganov va Damira Djuzbayevalarning “*Oʻzbekcha-ruscha-inglizcha yuridik atamalar lugʻati*”da (2020) Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Jinoyat – prosessual kodekslari asosida tuzilgan boʻlib, 3300 dan ortiq atamalarni oʻz ichiga olgan. Jumladan, *aybli deb topmoq – признавать виновным – admit guilt*.

N.M.Mahmudov, Sh.N.Koʻchimov va N.E.Sharipovalarning “*Yuridik terminlarning ruscha – oʻzbekcha lugʻati*”da (2021) 9 mingga yaqin davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq, jinoyat protsessi, mehnat huquqi, halqaro huquq va fuqarolik huquqiga oid terminlar qamrab olingan. Maʼlum bir huquqiy tushunchaning turli adabiyotlarda turlicha berilishi, ularni unifikatsiya qilish masalasi ilgari surilgan. Masalan, *исполнительная власть – ijro hokimiyati, ijro etubchi hokimiyat, ijro etish hokimiyati, уголовное дело – jinoyat ishi, jinoiy ish* shular jumlasidandir.

XULOSA

1. Ilm-fan taraqqiy etar ekan, maʼlum bir sohalarning vujudga kelishi, shu bilan birga, ushbu sohaga oid lugʻatlarning shakllanishini taqazo etadi. Terminologiya esa texnika, muayyan fan, ishlab chiqarish tarmogʻi, sanʼat kabi ijtimoiy hayotning jamiki tarmoqlarida qoʻllaniladigan

maxsus leksik birliklarmajmui hisoblanib, terminologik leksikalar umumxalq tilining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi.

2. Terminologik lug'atlar shakllantirayotganda mualliflar nafaqat sohaga oid terminlarni yig'ish bilan shug'ullanishgan, balki ularni to'plashda turli yondashuvlarga asoslangan. Masalan, ayrim mualliflar faqat yangidan-yangi terminlarni lug'atlariga kiritgan bo'lsa, boshqalari ma'lum tildagi tarjimalarni berishda fransuz, nemis va ispan tillaridagi taqqoslashlari bilan birga keltirilgan. Shuningdek, internatsional sinonim terminlarning o'zbek tilida qo'llanib kelinayotgan dublet sinonimlari ham ayrim mualliflar tomonidan berilgan. Bundan tashqari, mualliflarning ijodiy yondashuvi orqali terminlarning muqobil tarjimalari bo'yicha takliflari ham o'rtaga tashlangan. Shuningdek, noto'g'ri ishlatib kelingan terminlar o'rniga adekvat ma'noli terminlar ham tavsiya etilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baxronova D., Radjabova H. Xavfsiz turizmni ta'minlash sohasi terminlarida ko'p ma'nolilik, sinonimiya va omonimiya hodisasi.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 5 (52). — B. 7-22.
2. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanmasi. 1-qism. - T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004. 231 b
3. Lug'at turlari masalasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika atamashunoslik qo'mitasining «O'zbek tili atamashunosligi» Axborotini Toshkent: «Fan nashriyoti», 19-36-betlar
4. Флоренский П.А. Термин // История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: Очерк и хрестоматия / Сост. В.А. Татаринov. — М.: Московский Лицей, 1994. — С. 359.
5. Головин Б.Н. Типы терминосистем и основаниях их различия// Термин и слово. — Горький, 1981, — С.5
6. Ивина Л.В. Номинативно-когнитивное исследование англоязычной терминосистемы венчурного финансирования: дисс...канд.филол.наук. — Москва, 2001, — С.13.
7. Кузькин Н.П. К вопросу о сущности терминологии. Библиография. 1999 №5 с. 156-157
8. Калинин А.В. Лексика русского языка, 1971. — с. 141.
9. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. Tajjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. - T.: «FAN», 1-1 (1960), 2 - 1 (1961), 3 - 1 (1963), indeks-lug'at: G'.Abdurahmonov va S.Mutallibovlar ishtiroki va tahriri ostida tayyorlangan. — T., «FAN», 1967
10. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М., 1966
11. H.Sh. Radjabova "O'zbekcha-inglizcha-ruscha xavfsiz turizmga oid atamalar lug'ati" O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, "Akademnashr" DUK 2024.
12. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. — URL: www.lex.uz (murojaat sanasi: 16.04.2024)
13. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. — URL: www.lex.uz (murojaat sanasi: 16.04.2024)
14. Zokirov Q.Z., Nabiyev M.M., Pratov O'.P., Jamolxonov X.A. Ruscha-o'zbekcha botanika terminlarining qisqacha izohli lug'ati. T.: O'z FA nashr., 1963
15. Hojiyev Azim. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. — T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2002